

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.FIL.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

ESANOV ALIJON MENGBAYEVICH

**O‘ZBEK BOLALAR MAVSUMIY MAROSIM FOLKLORI
(genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari va badiiyati)**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Esanov Alijon Mengbayevich

О‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklori (genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari va badiiyati)..... 3

Эсанов Алижон Менгбаевич

Фольклор узбекского детского сезонного обряда (генезис, особенности и художественность) 25

Esanov Alijon Mengbayevich

Folklore of the Uzbek children's seasonal rite (genesis, features and poetry)..... 49

Elon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.FIL.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

ESANOV ALIJON MENGBAYEVICH

**O‘ZBEK BOLALAR MAVSUMIY MAROSIM FOLKLORI
(genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari va badiiyati)**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil 1008 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universitri veb-sahifasining (www.buxdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Rajabov Dilshod Zaripovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Ochilov Nasim Kamolovich**
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Safarova Nigora Oxunjonovna
filologiya fanlari nomzodi, pofessor

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.FIL.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "3" *may* kuni soat *14.00* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*1607* raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil "16" *aprel* kuni tarqatildi.
(2024-yil "16" *aprel* dagi *SI* -raqamli reestr bayonnomasi).



Yo.S. Saidov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
filologiya fanlari doktori, professor

A.R. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

S.M. Sariyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida marosim folklori, uning tarixiy asoslari, o'rganilishi, genezisi va poetik xususiyatlarini o'rganish orqali har bir millatning yashash tarzi, ijtimoiy-madaniy hayoti, badiiy-estetik tafakkuriga aloqador qadimiy an'analarning yashovchanligi masalasi bolalar mavsumiy marosim qo'shiq va aytimlarini ham o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Bolalar mavsumiy va taqvim bilan bog'liq marosim qo'shiqlari ko'plab yaratilganki, ularning kattalar folkloriga aloqadorligi genetik jihatdan bog'liqligi, janriy xususiyatlari va badiiy-kompozitsion belgilarini aniqlash xalq badiiy tafakkurining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo folklorshunosligida bolalar mavsumiy marosim folklori janrlariga xos areal va lokal xususiyatlar, ularning yaratilishiga asos bo'lgan ijtimoiy-psixologik omillar, g'oyaviy-badiiy jihatlar, bunda xalq donishmandligining yuksak ma'naviyat xazinasini vazifasini o'tashi naqadar ahamiyatli ekanligi, balki tarixiy-tipologik nuqtayi nazardan ham bog'liqligini ko'rsatmoqda. Mavsumiy marosimga aloqador janrlar genezisi, mavzu qamrovi, poetikasi va ijrosiga xos o'xshashlik bolalar folklorining tarkibiy qismi sifatidagi aloqadorlik deyarli barcha xalqlar ijodiyotining asosi ekanligi isbotlandi. Darhaqiqat, bolalar mavsumiy marosim folklori namunalariga tarixiy-poetik, ritualistik nazariya asosida immanent va kontekstual jihatdan yondashilsa, ularning taraqqiyot tamoyillari, shakliy-uslubiy yangilanishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahliliy dalillashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad kelajak avlodning unib-o'sishi, intellektual qobiliyatining shakllanishi hamda milliy qadriyat va an'analarni o'zlashtirish orqali vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga e'tibor qaratilmoqda. "Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi"¹. Bu esa bolalar mavsumiy marosim folklori janrlari genezisi, tarixiy asoslari, mavzusi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijro o'rniga xos kompozitsion belgilar, ularning hududiy va areal tarqalishiga doir nazariy masalalarni ilmiy jihatdan o'rganishga doir aloqadorlik tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август.

kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi 304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab turli qabila va urug'larni uzoqroq yashab qolishi, izdoshlarini tarbiyalash maqsadida alla, ovutmachiq, ertak va topishmoqlar yaratib, bu orqali ongli, kuchli, epchil va chaqqon insonni shakllantirish maqsadini ko'zlaganligi haqidagi e'tiroflar N.P.Ostroumov, N.Budzinskiy tadqiqotlarida uchraydi². Rus bolalar adabiyotshunosligida E.B.Taylor, V.Ya.Propp, B.N.Putilov, M.N. Melnikov, F.S.Kapitsa³ tadqiqotlarida folklor janrlari haqida bildirilgan fikr-mulohazalar o'zbek bolalar folklorshunoslari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi.

O'zbek folklorshunosligida bolalar folklorini to'plash va ilmiy o'rganishning boshlanishida G'.O.Yunusovning "Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z" maqolasi alohida qimmat kasb etdi⁴. XX asr boshlarida Elbek ta'limda bolalar xalq qo'shiqlaridan foydalanish maqsadida ularni yig'ishga e'tibor qaratdi va to'plagan materiallari asosida "Bolalik qo'shiqlari" (1936) to'plamini e'lon qildi⁵. O'zbek bolalar mavsumiy folklorining ilmiy-nazariy asoslari borasidagi fikr-mulohazalar G'.Jahongirov, O.Safarov, N.Qurbonova, H.Ro'zmetov, Sh.Galiyev, N.Safarova, S.Avezov, Sh.Turg'unovlarning sohaga oid tadqiqotlarida ham uchraydi⁶. Ayniqsa,

² Остроумов Н.П. Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана: Стихи в чест месяца Рамазан. – Казань, 1899; Жўраев М. Рамазон кўшиқлари. // Оила ва жамият. – 1992. – 11-сон. – Б.3; Жўраев М. Халқ ижоди – қайнар булоқ: Рамазон кўшиқлари. – Тошкент ҳақиқати. – 1992, 21 апрель.

³ Тайлор Э.Б. Детский игры // Первобытная культура. – Москва: Политиздат, 1989. – С.78-511; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – Москва: Наука, 1976. – 325 с.; Путилов Б.Н. Методология сравнительно-исторического изучения фольклора. – Ленинград: Наука, 1976. – С.183-184, Мельников М.Н. Русский детский фольклор. Учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1987. – 240 с.; Капица Ф.С. Русский детский фольклор. Учебное пособие. – Москва: Флинта-Наука, 2002. – 315 с.

⁴ Yunusov G'.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qitg'uvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – В. 25-26.

⁵ Амонов У. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиш тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 87 б.

⁶ Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 122 б.; Сафаров О. Болаларни эркаловчи ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.; Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.; Курбонова Н.Х. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фан. номз...дисс. – Т., 1994. – 125 б.; Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.; Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Фан, 1998. – 96 б.;

O.Safarov o‘zbek folklorshunosligida birinchi bo‘lib bolalar mavsumiy marosim folklori muayyan janrlardan tarkib topgan yaxlit bir tizim sifatida ham kattalar, ham bolalar ijrochiligi va ijodkorligi hosilasi ekanini asoslab berdi. Ularga mos atamalarni ilmiy iste‘molga olib kiritib, janriy tabiati va badiiyatini ochib berdi⁷. O.Safarov, K.Ochilov, Y.Sultonov, N.Rahmonov, Sh.Turdimov, M.Yoqubbekova, Sobir Ehsan Turk va K.Nurjonov, M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarovlar⁸ tomonidan tayyorlangan to‘plamlar ham o‘zbek bolalar folklorini yig‘ish va nashr qilish ishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Biroq, o‘zbek bolalar mavsumiy folklori genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari va badiiyati hozirga qadar filologik jihatdan maxsus ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Shuning uchun bolalar mavsumiy folklorini yaxlit tizim sifatida o‘rganish hozirgi o‘zbek folklorshunosligida folklor an‘analarining yurtimizda saqlanish va rivojlanish holatini aniqlash uchun juda muhimdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining (2020-2025-yy.) mo‘ljallangan “O‘zbek folklorshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklorining genezisi, janr xususiyatlari va badiiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodida bolalar mavsumiy marosim folklorining tabiati, o‘rni, o‘rganilish tarixi va tadqiq prinsiplarini aniqlash;

o‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklori va bolalar taqvim poeziyasining genezisi, shakllanish manbalari, ijtimoiy-psixologik omillarini ochish;

bolalar mavsumiy marosim folklorining janriy tarkibi, mazmun-mundariyasi, badiiy-kompozitsion, lingvopoetik xususiyatlari, shakliy tiplarini oydinlashtirish;

Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати. – Тошкент: Фан, 2008. – 120 б.; Авезов С. Санама жанри табиати ва бадийяти. – Тошкент: Фан, 2008. – 104 б.; Турғунов Ш. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс., Тошкент, 2019. – 178 б.

⁷ Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.

⁸ Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат кўшиқлари (Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар: Сафаров О., Очилов К.). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 336 б.; Алла-ё алла (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Сафаров О.) – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 160 б.; Ўзбек болалар халқ ўйинлари (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Сафаров О.). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – 176 б.; Сафаров О. Ўзбек халқ болалар ўйинлари. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 176 б.; Эл суярим, алла. Ўзбек халқ аллалари (Тўплаб, нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Сафаров О.). – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 96 б.; Қайнар булок. Ўзбек болалар фольклоридан намуналар (Тўпловчи: Султонов Й.) – Тошкент: Чўлпон, 1991.; Читтигул (Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Султонов Й., Раҳмонов Н., Турдимов Ш.) – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 96 б.; Алла, алла, оппоғим (Нашрга тайёрловчи: Ёқуббекова М.). – Тошкент, 2002. – 28 б.; Хоразм хазинаси (Тўпловчи: Собир Эҳсон Турк, нашрга тайёрловчи: Нуржонов К.). – Урганч: Хоразм, 1996. – 126 б.; Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим кўшиқлари (Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи: Жўраев М.). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.; Улуғ ой умидлари (“Ё рамазон” кўшиқлари) (Тўплаб, нашрга тайёрловчилар, сўз боши ва изоҳ муаллифлари: Жўраев М. ва Шомусаров Ш.). – Тошкент: Мовароуннахр, 2001. – 94 б.

bolalar mavsumiy marosim folklorida yil fasllari bilan bog‘liq bolalar qo‘shiqlarida poetik janr, obraz, motiv yangilanishiga xos adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash;

mavsumiy marosim folklorida uchraydigan an’anaviy motiv va obrazlarning yangilangan ko‘rinishlarini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Boychechak”, “Ming bir bola o‘yini”, “Oy oldida bir yulduz”, “Ulug‘ oy umidlari”, “Chittigul” kabi to‘plamlarda chop etilgan hamda Surxon vohasidan muallif tomonidan yozib olingan o‘zbek bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini yil fasllari va xalq taqvimi bilan bog‘liq bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlarining genezisi, janrlari, poetik til va kompozitsion xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ishda tasvirlash, tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik, etnofolkloristik, kortografik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklori, bolalar taqvim poeziyasining o‘ziga xos jihatlari, badiiy-kompozitsion, lingvopoetik, milliylik, xalqchilik, g‘oyaviy ta’sirchanlikni oshirish bilan bog‘liq uslubiy-vazifaviy xususiyatlari ochib berilgan;

qamariy yil bilan aloqador Barot keldi, Ramazon, Safar qochdi, shamsiy yil bilan bog‘liq Qozon to‘ldi, Sumalak, Birinchi qo‘sh, Boychechak qo‘shiqlarining yangilanishlari asosida kelib chiqqan tafovutli jihatlarda etnopedagogik mohiyatning saqlanishi dalillangan;

bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlari, qamariy yil bilan bog‘liq folklor janrlari tarkibida uchraydigan an’anaviy motivlar, obrazlarning yangicha ko‘rinishda davr ruhiga hamohang ko‘rinishda qo‘llanish uslubi, poetik ifoda va talqin belgilari isbotlangan;

bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlari tarkibida folklor janrlariga xos an’anaviy shakl, detal yoki epizodning xalqona ruhini aynan saqlashdan iborat badiiy-estetik prinsiplar, bunda poetik janr, mazmun, obraz, motiv yangilanishi bilan bog‘liqliqda so‘z tanlash mahorati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalq og‘zaki badiiy ijodida bolalar mavsumiy marosim folklori namunalari va taqvim bilan bog‘liq qo‘shiqlarning yaratilish asoslari, ularning shakliy-uslubiy poetik imkoniyatlarini yangilash va boyitishdagi janriy izlanishlarning xususiyatlari aniqlangan;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodida bolalar mavsumiy marosim folklorining tutgan o‘rni, tabiati, genezisi, unga aloqador janrlarning muhim belgilari, an’anaviy mavzusi, motiv va obrazlarining yangicha ko‘rinishdagi talqinlari, badiiy-estetik vazifalari ochib berilgan;

hijriy-qamariy taqvim bilan bog‘liq bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlari orqali poetik tafakkurning yangilanishi ma’naviy ehtiyojga aylangani va xalq

og‘zaki ijodi barcha davrlarda yozma adabiyot rivojida muhim o‘rin tutib kelgani asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma‘lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning tasvirlash, tarixiy-qiyosiy, analitik, germenevtik, etnofolkloristik, kortografik hamda sotsiologik tahlil kabi ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, follarshunoslikning ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlariga xos badiiy-kompozitsion, lingvopoetik, uslubiy ifoda xususiyatlari yaxlit badiiy tizim sifatida aniqlanib, ularning mushtarak qirralari, bir-biriga o‘zaro ta’siri, genetik aloqadorligi isbotlanganligi, yil fasllariga aloqadorlikda yaratilgan bolalar qo‘shiqlari hamda hijriy-qamariy taqvim bilan bog‘liq bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlarining poetik-tadrijiy takomili dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “O‘zbek folklori”, “O‘zbek mifologiyasi”, “Bolalar adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi” fanlari bo‘yicha maxsus dars mashg‘ulotlari olib borishda, maxsus kurslar o‘tishda, ma‘ruzalar o‘qishda, o‘quv qo‘llanma, darslik hamda majmualar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek folklorida bolalar mavsumiy marosim qo‘shiqlari janrlarini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklori, bolalar taqvim poeziyasining o‘ziga xos jihatlari, badiiy-kompozitsion, lingvopoetik, milliylik, xalqchilik, g‘oyaviy ta’sirchanlikni oshirish bilan bog‘liq uslubiy-vazifaviy xususiyatlariga doir ilmiy xulosalaridan FA-F1, G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2017-2021-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 28-martdagi 17/01/73-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek bolalar mavsumiy marosim folklorida bolalar taqvim poeziyasining xususiyatlari aniqlangan;

qamariy yil bilan aloqador Barot keldi, Ramazon, Safar qochdi, shamsiy yil bilan bog‘liq Qozon to‘ldi, Sumalak, Birinchi qo‘sh, Boychechak qo‘shiqlarining yangilanishlari asosida kelib chiqqan tafovutli jihatlarida etnopedagogik mohiyatning saqlanishi doir ma‘lumotlardan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2017-2021-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 28-

martdagi 17/01/73-son daloatnoma). Natijada qamariy yil bilan aloqador ma'lumotlarga tayanilgan;

bolalar mavsumiy marosim qo'shiqlari tarkibida folklor janrlariga xos an'anaviy shakl, detal yoki epizodning xalqona ruhini aynan saqlashdan iborat badiiy-estetik prinsiplar, bunda poetik janr, mazmun, obraz, motiv yangilanishi bilan bog'liqliqda so'z tanlash mahoratini yoritishga doir xulosalardan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasi adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2021-yil 29-apreldagi 01-01/54-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqori saviyali barkamol avlodni voyaga yetishtirish, yoshlar orasida folklor asarlar va milliy qadriyatlar haqida ma'lumot olish hamda yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqidagi targ'ibot ishlari mazmuni mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan 6 ta respublika, 2 ta xorijiy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shundan 5 ta respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda jami 8 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bolalar mavsumiy marosim folklorining o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan. Birinchi fasl "*O'zbek bolalar mavsumiy marosim folklorining o'rganilish tarixi*" deb yuritiladi. Ma'lumki, og'zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo'lmasdan ilgari, uzoq o'tmishdayoq mavjud bo'lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma'naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir. Xalq og'zaki ijodi xalqning mehnat jarayoni asosida yuzaga kelgan bo'lib, uning kundalik turmushi bilan chambarchas bog'langan. Bolalar folklori xalq poetik ijodining uzviy bir tarkibiy qismini tashkil etadi. Mazkur tarkib tez aytish, sanama, topishmoq kabi ko'plab janrlardan tashkil topgan.

O'zbek bolalar folklori namunalari to'plash, nashr etish va ilmiy estetik qimmatini oshirish masalalari o'tgan asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. 1919-yili

Fitrat boshliq bir guruh shoir va olimlar birinchi adabiy uyushmani tuzganlarida, unga “Chig‘atoy gurungi” deb nom berishgan.

Fitrat va uning maslakdoshlari mo‘g‘ul istilosidan o‘zlariga qadar turkiy tilda yaratilgan adabiyotni o‘zbek xalqining ma’naviy boyligi sifatida saqlab qolish va xalqning tom ma’nodagi mulkiga aylantirish maqsadida bu boy adabiy merosni to‘plash, o‘rganish va nashr etishni o‘z oldilariga vazifa qilib qo‘ydilar... “Gurung”ning ilmiy va ijodiy dasturini amalga oshirishga kirishgan Abdurauf Fitrat o‘zbek mumtoz adabiyotini uning qadimgi davrlaridan boshlab o‘rganishga kirishdi; Elbek xalq ijodi namunalarini to‘plash va o‘rganishni o‘z zimmasiga oldi”⁹. 1937 yilda Elbek tomonidan to‘plab tartib berilgan “Bolalar qo‘shig‘i”, O.Safarov tomonidan tartib berilgan “O‘zbek xalq ijodi” seriyasida 1984 yilda bosilib chiqqan “Boychechak” to‘plamlari juda katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbek bolalar folklorini o‘rganish 60-yillardan e’tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovning “O‘zbek topishmoqlari” (1966), G.Jahongirovning “O‘zbek bolalar folklori” (1975), shuningdek, O.Safarovning “Bolalarni erkaloovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1983), “O‘zbek bolalar poetik folklori” (1985), “Alla-yo alla” (1999), “Chittigul” (2004), “O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari” (2012), Sh.Galiyevning “O‘zbek bolalar o‘yin folklori” (1998) singari tadqiqotlari tufayli bu boradagi izlanishlarning samaralari ko‘zga tashlandi¹⁰.

O‘zbek folkloriga oid ilk tadqiqotlardan biri rus sharqshunosi N.P.Ostroumovning Qozonda nashr etilgan kitobida bolalar tomonidan ijro etiluvchi “Ramazon” qo‘shiqlari bilan bog‘liq qaydlar uchraydi¹¹.

Folklorshunos H.Ro‘zmetovning tadqiqotida o‘zbek bolalar folklori o‘rganilish tarixining tadrijiy taraqqiyoti alohida tizim sifatida tadqiq etilgan.

Shuningdek, H.Ro‘zmetov tadqiqotchilar ro‘yxatini davom ettirar ekan, Yu.Kazbekov, A.Divayev, N.N.Pantusov, A.Vasilevning¹² maqola va qaydlarini sanash bilan birga “o‘sha davr matbuoti va adabiyotini yanada batafsilroq ko‘zdan kechirganda bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin bo‘ladi”¹³, degan qarashlarni ilgari surish orqali qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tadi.

Istiqlol tufayli marosim folklorining ilgari nashr etilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalarini chop ettirildi. Folklorshunos T.Mirzayev va M.Jo‘rayevlar tomonidan nashr ettirilgan “Navro‘z” kitobi (tuzuvchilar: T.Mirzayev va M.Jo‘rayev, 1992 yil), yilboshi bayrami va bahoriy udumlar bilan aloqador urf-odat hamda marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar tahliliga bag‘ishlangan “Navro‘z qo‘shiqlari” (M.Jo‘rayev, 2007 yil) xalqimizning tabiat hodisalari bilan aloqador inonch va ta’birlari jamlangan “Ob-havo darakchilari”

⁹ Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. 1-китоб. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008. – Б.235.

¹⁰ Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019. – B. 36.

¹¹ Остроумов Н.П. Материалы к изучению наречия сартов Туркестана. Стих в чест месяца Рамазана (сартский текст и русский перевод). – Казань, 1898. – С.2-8.

¹² Диваев А. Игры киргизских детей // Туркестанский сборник. Т.440. – Ташкент, 1875. – С.837; Пантусов Н.Н Игра токуз-кумалак // Известия общества археологии, этнографии и истории при Казанском университете. Вып. 4. Т.22. – Казан, 1906. -С.1-4; Василев А. Игры сартовских детей // Туркестанские ведомости, 1909. – №109.

¹³ Рўзметов Х, Хоразм болалар фольклори: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 15.

to‘plami (to‘plab nashrga tayyorlovchi; M.Jo‘rayev, 1996 yil), “Ulug‘ oy umidlari”, “Yo ramazon qo‘shiqlari” (to‘plab nashrga tayyorlovchi: M.Jo‘rayev va Sh.Shomusarov, 2001 yil), o‘zbek dafn va ta‘ziya marosimlari folklori namunalaridan tarkib topgan. “Bo‘zlardan uchgan g‘azal-ay” (nashrga tayyorlovchi O.Safarov, D.O‘rayeva, 2005 yil) singari kitoblar xalqimizning marosim folklorini to‘la nashr etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi”¹⁴.

Ikkinchi fasl “*Bolalar mavsumiy marosim folklori genezisi*” tarzida nomlangan. Ma’lumki, an’anaviy xalq taqvim poeziyasi tarkibidagi xalq milliy urf-odatlar bilan bog‘liq udumlar o‘zining mavsumiylik xususiyatlari va funksional-tarkibiy tuzilishiga ko‘ra yil fasllari bilan bog‘liq bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki marosimlarga bo‘linadi.

O‘tmishda vaqt hisobini aniqlash insoniyat tafakkurining oliy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan. “Vaqt hisobi” va uning genezisi haqida M.Pirmatovanning tadqiqotida bir qancha olimlarning fikrlari asos sifatida keltirilib o‘tiladi. Olima o‘z ishida o‘zbek taqvimiga quyidagicha e’tibor qaratadi: “Biz O‘rta Osiyo xalqlari tomonidan qo‘llanilgan an’anaviy vaqt hisobi amallarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish asnosida o‘zbek xalq taqvimini quyidagicha tasnifladik:

1. Osmon yoritqichlari bilan bog‘liq taqvimlar: a) shamsiy taqvim; b) to‘qish yoki to‘g‘al hisobi; v) yulduz hisobi; g) muchal hisobi.

2. Dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq taqvimlar: a) chorva hisobi; b) yuz hisobi; v) to‘qson hisobi; g) chilla hisobi.

3. Fenologik taqvimlar: a) qush qayi yoki dolg‘a hisobi; b) toshuv hisobi”¹⁵.

Bolalar folklori janriy tarkibining nihoyatda boyligi va o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘lamdorligi, xilma-xilligi, kelib chiqishi, an’anaviyligi, mazmun-mohiyati, poetikasi, xususan, poetik qurilishi, obrazlar tizimi, xalqchil vazni, ohangi, tiliga xos jihatlari bo‘lgan qo‘shiqlar yillar davomida aholining hayotiy tajribalaridan qayta-qayta o‘tib, chapxlanib, bugungi kunimizgacha yetib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodi merosini uning ilmiy tabiati, etnomadaniyat bilan bog‘liq jihatlari xalq orasida turli-tuman mavsumiy marosimlar, bayramlar oylar va yil fasllari bilan bog‘liq qo‘shiqlar juda keng tarqalgan bo‘lib, bular orasida taqvim bilan bog‘liq o‘zbek marosim folklori quyidagi janrlarni o‘z ichiga olishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni M.Pirmatova quyidagicha tasniflaydi:

a) Qamariy yil bilan bog‘liq folklor janrlari: Barot keldi, Ramazon, Safar qochdi va boshqalar;

b) Shamsiy yil bilan bog‘liq folklor janrlari: Qozon to‘ldi, Sumalak, Birinchi qo‘sh, Boychechak va boshqalar;

s) muchal bilan bog‘liq folklor janrlari: Muchal to‘yi folklori¹⁶.

¹⁴ Жўраев М. Ўзбек фольклор санъати ва фольклоршунослиги тарихи // Ўзбек миллий фольклор санъати ва этномаданий кадриятлар. Ўқув кўлланма. Масъул муҳаррир: Йўлдошева С.Н. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б.10.

¹⁵ Пирматова М. Ўзбек тақвим фольклори: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 15-16.

¹⁶ Пирматова Манзура. “Ё рамазон” кўшиқлари хақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1998. – 5-сон. – Б.33.

Ushbu tasnif bir qadar masalaning tub mohiyatini ocha olgan. Negaki, M.Pirmatova yaxlit konsepsiyaga asoslanib, o'z tasnifini amalga oshirgan.

“Yo ramazon” mavsumiy marosim qo'shiqlaridan biri bo'lib, bolalar marosim taqvim folklori janrlaridan hisoblanadi. Mazkur qo'shiq nisbatan keng tarqalganligi, ko'p variantlilik hamda hozirgi kunga qadar o'zining ijro o'rni, lokal xususiyati va hayotiy-maishiy funksiyasi nuqtai nazaridan yashovchanligini saqlab kelayotganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Surxon vohasida “Yo ramazon” qo'shiqlarining boshlanishi asosan ikki xil bo'lib, “Ramazon aytib keldik eshigingizga” deb boshlanuvchi variant ko'p uchraydi. Ikkinchi variant “Assalomu alaykum bizlar keldik” deb boshlanuvchi variant bo'lib, bu variantda ro'zaning uch kunini tutib, payg'ambar yo'lini izlab, ko'rgani, ko'rishgali kelganlik tarzida ifodalanadi. Har ikkala variantda ham “Yo ramazon” qo'shiqlarini aytuvchilar uy egalarining olijanobligi, mehmondo'stligi va serhimmatlilikini ta'rif-tavsif qilib, ularga farzand, sihat-salomatlik, uzoq umr, bitmas-tuganmas boylik tilaydi. Bu qo'shiqlarning hayotbaxshligi qo'shiqlarning oilaga farzand tilash, oilani ta'rif-tavsif qilish, ezgu-niyatlarini izhor etish, xonadonga tinchlik, osoyishtalik va boylik tilash ruhida ekanligidadir.

Taqvim folklorining “Yo ramazon” qo'shiqlarini to'plash jarayonida Surxon vohasi aholisi orasida ham “yo ramazon”, “yo rabbiman”, “mayramazon” kabi nomlar bilan atalgan variantlari mavjudligi va bandlar, asosan, yo ramazon, yo ramazon; ramazon, yo ramazon; yo ramazon; yo ramazon, mayramazon, ba'zan yo ramazon, Muhammad himmatiga boy ramazon, Ollohuma yo ramazon, Ollohuma yo ramazon satrlari bilan tugaganligiga guvoh bo'ldik.

Surxon vohasida ham “Yo ramazon” qo'shig'ini avvallari katta yoshdagi kishilar, o'smirlar aytishganligini, qo'shiq matnlarida hazil-mutoyiba mazmunidagi satrlar orqali bilib olish mumkin. Qo'shiq matnining bunday tuzilishi ma'lum ma'noda uning badiiy serbo'yoqligini ta'minlash uchun xizmat qilgan:

Boy bobom qo'radan qo'y beraman, deydi,
Boybicha xolam bo'xchadan to'n beraman, deydi.
Ollohima yo ramazon, Ollohima yo ramazon,
Boy bobom bergan qo'yning sog'i yo'q,
Boybicha xolam bergan to'nning belbog'i yo'q¹⁷.

Bunday hazil-mutoyiba satrlar ramazonchilarning so'zga chechanligi, topqirligining namunasi bo'lib, odatda uy egalarining o'z vaqtida ramazonchilar oldiga chiqmaganda, ramazonchilarga berilishi lozim bo'lgan ehsonlarni kutib qolishganda ijro etilgan:

Surxon vohasida bugungi kunda ramazon qo'shiqlari butunlay bolalar qo'shiqlariga aylangan. Joylarda bu qo'shiqlar bolalar tomondan ro'za oyi boshlanishi bilan bir necha kun va ro'za oxirlarida ham ijro etiladi. Bolalar ham qo'shiqning an'anaviy variantlaridan foydalanadi. Shu bilan bir qatorda, yangi shakllarning vujudga kelayotganini ham kuzatish mumkin. Masalan, Qumqo'rg'on

¹⁷Surxondaryo viloyati, Denov tumani, O'shor mahallasida yashovchi 71 yoshli Choriyev Ibroyimdan 2019-yilda A.Esanov yozib oldi.

tumanidagi “Yangi hayot” mahallasida yashovchi yetti yoshli Asilbek Musurmonqulovdan yozib olingan ramazon qo‘shig‘ida an’anaviy “ramazon aytib keldik” satri bilan boshlanuvchi matn quyidagicha boshanadi:

Yoqqaning archa bo‘lsin,
Kiyganing parcha bo‘lsin.
O‘choq to‘la kul bo‘lsin,
Tevaragi ul bo‘lsin,
Xudoy bergan keng davlat,
O‘z-o‘zidan mo‘l bo‘lsin¹⁸.

Bunday satrlarning mavjudligi ramazon qo‘shiqlarining bolalarbop yangi variantlari yaratilayotganligini ko‘rsatadi. Matndagi “parcha” so‘zi shu nomda ayollar ko‘ylakligi uchun paydo bo‘lgan matoni ifodalaydi. Shu nomdagi matoning yaqin o‘tmishga xosligi qo‘shiqning yaqinda yaratilganligini ko‘rsatadi. “O‘choq to‘la kul” xonadonda doim taom pishib turilishini, bu taomlardan bahramand bo‘luvchi farzandlarning ham ko‘p bo‘lishining tilanishi an’anaviy uslubga xoslikning namunasi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bolalar mavsumiy marosim folklorining janrlar tarkibi”** deb nomlangan. Bobning *“Yil fasllari bilan bog‘liq bolalar xalq qo‘shiqlari”* deb atalgan ilk faslida dastlab bolalar marosim folklorining o‘zbek folklorshunosligida qilingan tasniflari keltirilib, ayrim mulohazatalab o‘rinlariga e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, bolalarning tabiat hodisalari bilan bog‘liq qo‘shiqlari asosidagi bolalar qo‘shiqlari orasida bolalarning fasl va marosimlarga moslab to‘qib chiqargan va aytib yuradigan mavsumiy qo‘shiqlari ham bir talay. Bolalar qo‘shiqlaridagi tabiat hodisalariga atalgan so‘zlar negizida quyosh, oy, bulut, yomg‘ir, qor va boshqa tabiat hodisalarining mohiyati yotadi. Bolalar qo‘shiqlarida fasllar haqidagi fasl qo‘shiqlari, tabiatning tantanali manzaralari mavjud. Ayniqsa, tabiat hodisalariga oid qo‘shiqlarda quyosh, oy, bulut, yomg‘ir, qor va boshqa tabiat hodisalari inson omiliga, bolalar dunyosining kengayishiga ta’sir qiladi. Mavsumiy qo‘shiqlar bolalarning tafakkurini kengaytirish, ularga voqea-hodisalar, fasllar haqida ma’lumot berishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Laylak keldi”, “Chittigul”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Osmondagi oy”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi”, “Lola”, “Quyvon”, “Arg‘amchi-gilamchi”, “Hey lola” kabi qo‘shiqlar bahor fasliga tegishli bo‘lib, bu faslda tez-tez kuylanadi.

Surxon vohasining chekka qishloqlaridan birida yashovchi 60 yoshli Akrom bobo Rasulovning rivoyat qilishicha, qadimda bahor kelib kunlar isib ketganligi, yomg‘ir o‘z vaqtida yog‘maganligi sababli ekinlar, o‘t-o‘lanlar qovjiray boshlagan. Bu hol kattalar kabi bolalarga ham ta’sir qilganidan bolalar o‘yin barobarida shunday qo‘shiq kuylashgan:

Sharros quygin demayman,

¹⁸ Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, Kosib mahallasida yashovchi 65 yoshli Eshmo‘minova Sarvaradan 2018-yilda A.Esanov yozib oldi.

Sendan xafa bo‘lmayman,
Faqatgina bir iltimos,
Tomchi-tomchi, tomchi yomg‘ir,
Yog‘ib o‘tgin elimga¹⁹.

Bolalar qo‘shiq aytib bo‘lgandan so‘ng osmon bulutga to‘lib yomg‘ir tomchilay boshlabdi. Shundan keyin bolalarning shu qo‘shig‘idan kelib chiqib qishloqning nomi Tomchi deya nomlanganligi keltirilgan. Bolalar o‘yin qo‘shiqlari bolalarni ham jismonan, ham aqlan barkamol qilish bilan birgalikda yoshlikdan ularga kelajak uchun bamisoli bir ko‘prik, bir yo‘l vazifasini bajaradi. Chunki, ular yoshligida ko‘rganlarini, eshitganlarini o‘rganib, shunga intilib harkat qilishadi.

Mavsumiy marosim qo‘shiqlaridan biri “Barot keldi” qo‘shig‘idir. “Barot keldi” qo‘shig‘i keng tarqalmagan va keyinchalik unga har xil e‘tiqodlar bilan bog‘liq ravishda diniy tus berilgan. Barot ro‘zadan avvalgi oy bo‘lib, muborak oy hisoblangan. “Barot keldi” qo‘shig‘i ana shu oyda bolalar va ba‘zan kattalar tomonidan eshikma-eshik yurib aytilgan:

Barot keldi bildingizmi,
Subhidamda turdingizmi?
Subhidamda tura solib,
Idish-oyoq yuvdingizmi²⁰?

Uy egalari qo‘shiq aytib kelgan bolalarga mayda-chuyda chiqarib beradilar. Bunday qo‘shiqlar, bir tomondan, mehnat qo‘shiqlari, ikkinchi tomondan, bolalar folklori bilan mahkam bog‘langan. Ba‘zan bular orasidagi farqni belgilash juda qiyindir. Shuning uchun ham ularni birgalikda tekshirish yaxshi natijalar beradi.

Mavsum bilan bog‘liq qo‘shiqlarning keng tarqalgan namunalaridan biri bahor elchisi sifatida qadrlanadigan bolalarning sevimli qo‘shig‘i “Boychechak”dir. Bu qo‘shiq bahor faslining kirib kelishi va gul ochish jarayoni haqida. Boychechak bahorning birinchi gulidir, bu bahor belgisidir. Shuning uchun ham “Boychechak” nafaqat bolalar, balki kattalarning ham sevimli qo‘shig‘idir. Bu qo‘shiq hamma joyda kuylanganidek, turli xil variantlarga ega. Variantlarning har biri ifodalash, badiiy rang berish va nihoyat muhokama qilinadigan narsalar jihatidan farq qiladi.

Bolalar folklorini to‘plagan, ilmiy asosda o‘rgangan Ye.M.Peshchereva boychechak chiqishi munasabati bilan aytilgan “Boychechak” turkum qo‘shiqlari aslida o‘tmishda yashagan odamlarning o‘simliklarga sig‘inishi bilan aloqador marosimlar asosida kelib chiqqan degan fikr yuritgan.

Tadqiqotda “Laylak keldi yoz bo‘ldi”, “Chittigul”, “Ramazon” qo‘shiqlarining tahlili orqali bolalar mavsum qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyati, kuylanish jarayoni, bolaning tafakkurini o‘shida, voqea-hodisalar, fasllar haqida bilimlarining kengayishiga ta’siri keng tahlilga tortilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Hijriy-qamariy taqvim bilan bog‘liq bolalar marosim qo‘shiqlari*” deb atalgan. Ma’lumki, ajdodlarimiz kalendar-taqvim yaratish uchun

¹⁹Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumani, Tomchi mahallasida yashovchi 60 yoshli Rasulov Akromdan 2020-yilda A.Esanov yozib oldi.

²⁰Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – Б.126.

samoviy jismlar harakati va tabiat hodisalarini asos qilib olganlar. Juda qadim zamonlarda yaratilgan o'zbek xalq taqvimi bobolarimizning tabiat hodisalarini uzoq vaqt davomida muttasil kuzatib borishi natijasidagi katta hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalari mahsulidir. Xalqimiz yil fasllari va oylari, o'lkamizning tabiiy-iqlimiy sharoiti xaqida juda ko'p maqol, matal va e'tiqodiy qarashlarni yaratganlar hamda ularni yodda saqlab, kundalik turmushda amal qilganlar.

Xalqimizning madaniyatini, tarixini o'rganishga manba bo'lib xizmat qiluvchi o'zbek bolalar mavsumiy marosim qo'shiqlarining o'rni beqiyosdir. Hijriy-qamariy taqvim bilan bog'liq "Yo ramazon", "Barot keldi", "Boychechak" mavsumiy marosim qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlari, matn tuzilishi, obrazlar tarkibiga ko'ra mushtarak jihatlari, poetik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Mavsumiy marosim qo'shiqlarini tahlil qilish, o'rganish jarayonida bu qo'shiqlarning hayotbaxshligini ko'rsatuvchi eng muhim belgilari har bir oilaga qutlov, yaxshi niyatlar tilash, duo, farzand tilash kabi asosiy tilaklarni ifodalaydigan sifatlari muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

"Yo ramazon" qo'shig'ining aytilish usullarining ifodalanishi

Aytilimlar	Qo'shiqlar matni
Qutlov (uy egasiga yaxshi tilaklar bildirish)	Ro'zaning uch kunini tutib keldik sizga, Ro'zaning zakotini bering bizga. Ramazon aytgan bilan to'yamizmi, Burungining qadasini qo'yamizmi.
Tilak (uy egasi sovg'a-salom bergandan keyingi tilak so'zlar).	Yo ramazon aytib keldik eshingizga, Qo'chqorday o'g'il bersin beshigingizga. Qo'chqorday o'g'il bersa beshigingizga, Kim kelib kim ketmaydi eshingizga.
Da'vat (uy egasini yaxshi sovg'alar berishga da'vat etish)	Boybichcha momom bo'g'chasidan to'n beraman deydi-yo, Shu boy bobom qo'tonidan qo'y beraman deydi-yo!
Hajv (uy egasi uydan chiqavermasa, hajv so'zlar bilan chaqirish)	Chol-u kampir uxlaydi xurra-xurra, Suprasini it yirtadi tirra-tirra.
Duo (uy egasini duo qilish so'zlari).	Suruving tovli joylasin, Gul mixga ot boylasin. Chashma saylab suv ichsin, Parcha saylab to'n bichsin, Irisqingiz mo'l bo'lsin, Qozoni oydin ko'l bo'lsin. Yo ramazon, mayramazon.

XX asrning boshlariga qadar o'zbek xalqi ham vaqt hisobini yuritishda boshqa yil hisoblari bilan birgalikda hijriy-qamariy taqvimdan keng foydalangan. Xalqimiz qadimdan qamariy yil hisobini keng qo'llaganligi bois taqvim folklori

bilan bog‘liq janrlar kelib chiqqan. “Barot keldi” janr nuqtai nazaridan tadqiq etiladigan bo‘lsa, uning genezisi o‘zbek taqvim folklorining janrlar tarkibiga borib taqaladi, biroq bugungi kunda u qo‘shiq sifatidagina saqlanib qolishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

M.Pirmatovanning ma’lumot berishicha, “*barot*” atamasi qamariy yil hisobi bo‘yicha ramazon oyidan oldingi sakkizinchi oy – sha’bonning o‘n to‘rtinchi kechasi nomidir²¹. “Barot kechasi” xalqimizning diniy tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan milliy va qadimiy an’analardan biridir. Bu kun gunohlardan poklanish, tozarish, ruhan yangilanish kuni sifatida mo‘tabar sanalgan. Bugungi kunda ayrim qo‘shiqlar holida saqlanib qolgan “Barot keldi” marosim qo‘shiqlari tarixan o‘zbek taqvim folklori janrlari tarkibida mavjud bo‘lgan. Ushbu marosimda kattalar va bolalar tomonidan mavsumiy marosim qo‘shiqlari aytilgan.

“Barot kechasi” bekalar hamma idish-tovoqlarni yuvib tozalashgan, xonadonlarda cho‘zma, chalpak, bo‘g‘irsoq va turli xil shirinliklar pishirilgan. Tayyorlangan pishiriqlar qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘larga ulashilgan. Oqshom tushgach, bolalar uyma-uy yurib, “Barot keldi” deb nomlangan an’anaviy qo‘shiqni ijro etish orqali mahalladoshlarini muborakbod etganlar:

Barot keldi, bildingizmi?
Subhidamda turdingizmi?
Subhidamda tura solib,
Idish-tovoq yuvdingizmi?
Barot keldi, bildingizmi?
Bizga chalpak qo‘ydingizmi?²²

Bundan anglashiladiki, “Barot kechasi” xonadon bekalari ko‘pincha chalpak pishirgan va qo‘shiq aytib kelgan bolalarni siylaganlar, ularga har xil sovg‘alar berishgan.

Bugungi kunda “Barot keldi” marosimini o‘tkazish zaruriyati qolmagach, “Barot kechasi”da o‘tkazilishi lozim bo‘lgan udumlar saqlanib qolmagan. Ijro o‘rniga ko‘ra, marosim folklori tarkibida bo‘lgan “Barot keldi” qo‘shig‘i hozirgi kunda bolalar folklori tarkibidan joy olgan.

M.Alaviya “Barot keldi” qo‘shig‘i mavsumiy marosim folklori namunasi ekanligini va shu oyda bolalar ba’zan kattalar tomonidan oqshom tushishi bilan eshikma-eshik yurib qo‘shiq aytishganini qayd etgan²³.

Uchinchi fasl “*Bolalar o‘yin folklorida taqvimga munosabat*” deb nomlangan. O‘zbek bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bolalar folklorining tarkibiy jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turuvchi mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlari xalqimizning tarixi, turmush tarzi kabi muhim ma’lumotlarni ifodalagan ma’naviy qadriyatlardandir.

XI asrda yashab ijod qilgan mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida “yalngu” nomli o‘yinni qayd etib, quyidagilarni

²¹ Пирматова М. Ўзбек тақвим фольклори: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.63-64.

²² Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. –Б.256.

²³ Алавия М. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1974. – Б.126.

yozgan: “Bu – joriyalar o‘ynaydigan bir xil o‘yin nomi. Shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog‘lanadi, so‘ng ularning biri arqon o‘rtasiga o‘tiradi – oyoqlarini sakratib, ba‘zan yuqori, ba‘zan quyi tushib uchadi”²⁴.

Bu o‘yin yilning bahor, yoz, kuz oylarida ko‘proq o‘ynaladi. Qizaloqlar sochlariga tolbaglar taqishib, daraxtlarning baquvvat shohlariga arg‘amchi solishib navbat bilan birin-ketin ucha boshlaydilar. Shundan so‘ng qizaloqlar halinchak uchish haqida she‘rlar to‘qishib, qo‘shiqalar aytishgan.

Folklorshunos M.Jo‘rayev Navro‘z bayramining o‘ziga xos an‘analaridan biri halinchak uchish udumi ekanligini qayd etgan²⁵.

Turkiy xalqlar bolalari o‘rtasida keng tarqalgan o‘yinlardan biri “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yini asosida ham ibtidoiy insonlarning animistik, totemistik va fetishistik tasavvur-tushunchalari, daraxt kultiga bo‘lgan e‘tiqodiy qarashlari yotganligi jihatidan diqqatni tortadi. Ma‘lumki, har bir xalqning turmush tarzi, yashash o‘rni, milliy urf-odatlaridan kelib chiqqan turli o‘yinlari mavjud, jumladan, o‘zbek xalqining ham o‘ziga xos o‘yinlari bugun ham yashab kelyapti. Xalq orasida hamma uchun umumiy sayyor o‘yinlar va ma‘lum hududgagina tegishli o‘yinlar uchraydi. Hatto region jihatidan bir hudud bo‘lsa-da, ba‘zan bir qishloqning ma‘lum bir o‘yinlari qo‘shni qishloq o‘yinlaridan farq qilgan. O‘zbek xalqida mashhur bo‘lib ketgan o‘yin turlari quyidagilardir: harakatli o‘yin, bosh qotirma, so‘z, qo‘shiq, raqs o‘yinlari, voqeaband kabilar. Shu bilan birga to‘y-bayram va shodiyona o‘yinlari, jamoalar ishtirokidagi o‘yinlar ham o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Lekin bular hozirgacha ma‘lum bir tasnif asosida o‘rganilmagan. Masalan, tabiiy-mavsumiy o‘yinlar tabiatdagi o‘zgarishlar, yil fasllari asosida vujudga kelgan. Shu sababli doimiy o‘tkaziladigan o‘yinlar bilan birga har bir fasl o‘yinlari ham mavjud bo‘lgan.

Bahorda daraxtlar uyg‘onib, tollar kurtak chiqarganda – “Tolbagak”, dala gullari ochilganda – “Gul o‘yin”, “Lola sayli”, “Qizg‘aldoq gulladi” kabi qo‘shiqli – raqsli, tez harakatli “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Oq terakmi – ko‘k terak” kabi o‘yinlar inson ruhiyatiga uyg‘un holatda, ya‘ni tabiat uyg‘onishi bilan inson qalbi zavqqa to‘lishining ifodasi, izohi sifatida vujudga kelgan. Yoz faslida salqin joylarda, daraxtlar soyasida, soy va ariq bo‘ylarida kam harakat qilinadigan faslga mos o‘yinlar ko‘proq o‘ynalgan. Ayniqsa, suvda cho‘milish vaqtida “Suvda quvlashish”, (“Quvlashmachoq”) “Tez suzish”, “Suv ostida o‘zish”, “Suv ostida urish”, suvda turli raqsli harakatlarni bajarish (misol uchun tik sakrab turish, qo‘llarni yoygan holda aylanish, chalqancha suzish, qo‘l va oyoq harakatlarini bir me‘yor – ritmda harakatlantirish) kabi o‘yinlar avjiga chiqqan. Yoz oxiri, kuz boshi – pishiqchilik, to‘qchilik vaqtida danak, yong‘oq o‘yinlari, arg‘imchoq uchishlar sevilib o‘ynalgan. Kech kuz-qishda yer yumshaganda, ya‘ni yog‘ingarchilik kunlari boshlanishi bilan qoziq, oshiq, tosh o‘yinlar o‘ynash bolalarning odatiy holatiga aylangan. Qor yoqqanda “Qorxat”, “Qorbo‘ron”, yomg‘ir yoqqanda “Yomg‘ir yog‘aloq”, kuchli shamol esganda “Bo‘ron-bo‘ron”

²⁴Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3-том. – Тошкент, 1963. – Б. 390.

²⁵Жўраев М. Наврўз кўшиқлари. – Тошкент Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.50.

kabilarni o‘ynash an’anaga aylangan. Sovuq o‘z kuchini ko‘rsatganda barcha sandal atrofiga yig‘ilib: “Topishmoq top”, “Tez aytish”, “Kim aytdi”, “Oyog‘ingni tort” kabi o‘yinlar o‘ynalgan.

Bolalar o‘yin folklorida kuz fasli bilan bog‘liq “Uloq”, “Lanka”, bahorda o‘ynaladigan mavsumiy o‘yinlardan “Assalom, jiyda-bodom”, “Olmacha do‘m-do‘m” kabi bolalar o‘yinlariga oid tahlillar berib o‘tiladi.

